

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14869345>

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Jo‘rayev Umidjon Luqmon o‘g‘li

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: **Mambetova Lobar Mirzavali qizi**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mambetovalobar1304@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darklarida o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish va ta‘lim jarayonida uzluksiz ravishda rivojlantirib borish fanning asosiy vazifalaridan biri ekanligi, kommunikatsiya jarayonida nutqining mazmundorligi, mantiqiyliqi, aniqligi, tushunarlilik, ifodalilig hamda to‘g‘riligi ularning nutqiga qo‘yilgan talablarni mujassamlashtirishi bayon etilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kontekst, kommunikatsiya, nutq, nutqiy faoliyat, nutqiy kompetensiya, nutqning to‘g‘riligi, nutqning mantiqiyliqi, nutqning aniqligi, nutqning mazmundorligi, til, tafakkur.*

Nutq inson faoliyatining bir turi sifatida til vositalaridan foydalangan holda fikrni ifodalashdir. Til, tafakkur va nutq, so‘zlar o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, odam o‘ylayotganda fikrini so‘zlar, jumlar vositasida ichki nutqda ifoda etadi. Nutq tug‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib va rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. O‘quvchilarning nutqini o‘stirish, bu uzoq davom etadigan jarayondir. Nutq o‘stirish bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni izchil, doimiy ravishda o‘tkazib borilmasa, ta‘limning sifatli bo‘lishiga, o‘quvchilarning teran fikrlashlariga erishib bo‘lmaydi.

Ona tili ta'limining bosh maqsadi o'quvchilarda tilning ichki imkoniyatlaridan, uning tasviriy vositalaridan nutq jarayonida samarali va o'rinli foydalanish ko'nikmalarini, fikrni turli yo'sin va shakllarda ifodalay olish malakalarini hosil qilishdan iborat ekan, bunga erishishni boy va barkamol so'z xazinasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shuning uchun so'z boyligi omili davlat standartida muhim o'rin egallashi lozim. Nutq boyligi masalasi ona tilidan ta'lim samaradorligining amaliy ko'rsatkich darajasiga ko'tarilishi va so'z boyligini oshirish hamda boyitish esa ona tili ta'limining asosiy maqsadiga aylantirilishi ta'limning jahon andozalariga mos kelishini ta'minlash muhim vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiya elementlari tinglab tushunish, o'qib tushunish, so'zlash va yozish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan qiziqarli mashq va topshiriqlar o'rin olgan bo'lib, ushbu darsliklar ham sifat jihatidan, ham mazmun jihatidan zamon talablariga mos ravishda nashr etilgan. Darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, darsliklarda o'quvchilarning ham lingvistik, ham nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ularning yoshiga mos, qiziqarli, interfaol mashq va topshiriqlar berilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqining mazmundorligi, mantiqiyliqi, aniqligi, tushunarligi, ifodaliligi hamda to'g'riligi ularning nutqiga qo'yilgan talablarni mujassamlashtiradi va ular uzviy bog'langan bo'lib, kommunikatsiya jarayonida kompleks ravishda amalga oshiriladi. Ushbu talablarni shakllantirishda ta'lim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar ma'lum bir qiyinchiliklarga duch keladi. Xususan, ona tili darsliklarida berilgan matnlar bilan tanishish jarayonida o'quvchilar birinchi marta duch kelgan yoki ma'nosini bilmagan so'zlari uchrashi mumkin. Bunday vaziyatlarda o'quvchilar so'zning ma'nosini bilmaganliklari yoki tushunmaganliklari uchun matn mazmunini yoki matnning maqsadini to'liq anglamasligi mumkin. Natijada nutqning mazmundorligi, mantiqiyliqi, tushunarligi va to'g'riligi buziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikatsiya jarayonida so'zlarning lug'aviy ma'nolarini, shuningdek o'z va ko'chma ma'nolarini nutqiy vaziyatlarga ko'ra to'g'ri qo'llay olishi nutqiy kompetensiyalarining rivojlanganlik

darajasini belgilovchi omillardan biri sanaladi. Ona tili o'qitish metodikasida o'quvchilarga so'zlarning lug'aviy ma'nolarini tushuntirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'zlarni ularga tushunarli so'zlar qo'llanilgan gap yoki mat yordamida tushuntiriladi.

2. So'z ma'nosini lug'atdan va darslikda berilgan izohli lug'atlardan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo so'zini shabada, shamol so'zlari yordamida, mudofaa so'zini himoya so'zi orqali, sozanda so'zini qo'shiqchi so'zi orqali, diyor so'zini vatan so'zi oraqli, inshoot so'zini bino so'zi orqali, samo so'zini osmon so'zi orqali va shu kabilar. So'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda shu so'zning uslubiy ahamiyatini ham ko'rsatish zarur.

4. Tanish bo'lmagan so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga, ya'ni uning antonimig taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini yolg'onchi so'ziga taqqoslab tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy ifodalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin tushunchani ifodalovchi birliklar bilan tushuntirish. Masalan, o'zboshimchalik iborasini o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis so'zini biror hunar egasi; shunqor so'zini uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh so'zini mol terisidan tikilgan idish kabilar. Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn – bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi; ekskavator – bir vaqtning o'zida erni qazib tuproqniyuk mashinasiga ortadigan mashina; aerodrom – samolyotlar turadigan, uchib ketadigan yoki kelib qo'nadigan joy va hokazo.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash orqali tushuntirish. Masalan, yantoq – suvsiz joyda o'sadigan ninasimon tikanli o'simlik; akula – okeanlarda yashaydigan juda katta yirtqich baliq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi soʻzlarning maʼnosini kontekst yordamida tushuntirish. Buning uchun oʻquvchilar oʻrgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega boʻlgan asar qahramonlarining qilgan ishlari tahlil qilish ham samarali usullardan sanaladi.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning soʻzlarni lugʻaviy maʼnolarini anglagan holda nutqiy vaziyatlarda qoʻllay olish koʻnikmalari ona tili oʻqitishning asosiy maqsadlaridan biri boʻlib, oʻquvchilarga ona tilidagi soʻzlarning maʼno va mohiyatini oʻrgatishdan, soʻzni his etishga yoʻllashdan iborat. Bunda soʻz maʼnolarini oʻzlashtirish va uni nutqda toʻgʻri va oʻrinli qoʻllash malakasining hosil qilinishi alohida oʻrin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Mambetova L.M. Distinctive features of the development of speech competence // “Taʼlim-tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik pedagogikasi: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 18.11.2023. 629-631-b.

2. Mambetova L.M. The role of reading and understanding the text in the development of speech competence of students // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education Poland, conference <https://conferencea.org> August 20th 2023. - P: 102-106 Qosimova K., Matjonov S., Gʻulomova X., Yoʻldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili oʻqitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009. – 163 b.

3. Safarova R., Inoyatova M., Gʻulomov M., Sayfurov D., Malikova D. Alifbe. Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma. – Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2021. – 96 b.

4. Neʼmatov H., Gʻulomov A., Ziyodova T. Hozirgi oʻzbek adabiy tilini oʻrganishda oʻquvchilar soʻz boyligini oshirish. T. : “Xalq merosi”, - 2000, - 8 b.